



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 23-noyabr, payshanba,
139 (23.858)-son

**KUN
HIKMATI**

Salom berish
qarzgina
emas, har bir
shaxsning
tashrif qog‘ozi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

KELAJAK QURILISHLARI KO‘RGAZMASI

Jomboy tumanidagi “SOF EXPO SAMARKAND” ko‘rgazma majmuasida “Qurilish texnikalari, texnologiyalari va materiallari sanoat yarmarkasi - “Build Pro Expo 2023” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. 22-24-noyabr kunlariga rejalashtirilgan ko‘rgazmada Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va respublikamiz qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan yuzdan ortiq korxonalar o‘z mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.

Ko‘rgazmada qurilish texnikalari, konstruksiyalari, asbob-uskunalar, landshaft va ko‘kalamzorlashtirish, arxitektura va dizayn sohasidagi ilmiy ishlanmalar, startaplar, mahsulotlar taqdimotlari o‘tkazilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda 2020-yil 80 trillion so'mlik, 2021-yilda 88 trillion so'mlik, 2022-yilda 110 trillion so'mlik va joriy yilning o'tgan 10 oyida 130 trillion so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilgan. Bu yil sayin qurilish hajmining oshib borayotganini ko'rsatmoqda.

Soha korxonalari vakillari binolar tashqi qismini bazalt qoplamasi yordamida issiq va sovuqdan saqlash, pishiq tola tayyorlash kabi bir qancha yo'nalishlardagi mahsulotlar bilan qiziqishdi.

- “Bazalt” O‘zbekiston-Buyuk Britaniya qo‘shma korxonasi 2015-yilda Jizzax viloyati Forish tumanidagi Osmonsoy konidan bazalt toshini qazib olib, qayta ishlovchi Markaziy Osiyodagi yagona va jahondagi sanoqli korxonalardan hisoblanadi, - deydi korxona dilerlik markazi xodimi Rustam Rasulmetov. – Bu tosh olti bosqichda qazib olinib, undan qurilish sohasidagi yarim tayyor mahsulotlar, kompozit materiallar, bazalt tosh plitalari, bazalt armat-urasi, yo‘l qurilishi, boidanlanish uchun metall analoglarning o‘rnini bosuvchi geosetka mahsulotlari tayyorlanadi. Yana beton aralashmasiga qo‘shilib, yoriqlarning oldini oluvchi va mustahkamlikni oshiruvchi mahsulotlar ham ishlab chiqariladi.

Bazalt mahsulotlariga jahon bozorida talab yuqori. Shu bois mahsulotlarimiz respublikamizning barcha hududlarida, qo‘shni mamlakatlar, Osiyo, Yevropa davlatlari va AQSHga ham eksport qilinmoqda. Ko‘rgazmada bir necha qurilish korxonalari mahsulotimizdan namunalar olib, hamkorlikda ishlash takliflari ni bildirishdi.

**O‘ktam
XUDOYBERDIYEV.**

Ko‘rgazmada ishlab chiqaruvchilar va quruvchilar o‘rtasida B2B formatida uchrashuvlar o‘tkazilmoqda, sohada qo‘llaniladigan eng so‘nggi texnologiya va innovatsiyalar taqdim etilmoqda. Bozor tendensiyalari, pudratchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlar, qurilish maydonlarida xavfsizlikning ahamiyati, kelajak qurilishlarida foydalaniladigan yangi mahsulotlar ham namoyish etilmoqda. Shuningdek, yangi binolarni izolyatsiyalash tizimlari, jahon va O‘zbekistonda interyer va eksteryer dizayn tendensiyalari, ishlab chiqaruvchilar uchun inqirozni boshqarish, qurilish materiallari eksporti kabi mavzularda seminarlar o‘tkaziladi.

Qurilish sohasi vakillari xorijiy korxonalarning mahsulotlari bilan birgalikda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlariga ham katta qiziqish bildirmoqda.

- Korxonamiz faoliyatini 2007-yilda alumin eshik-romlar yasash bilan boshlagan, - deydi Past Darg‘om tumanidagi “SAMPLASTSERVIS” MCHJ menejeri Alisher Shodiyev. – 2020-yildan alumin xomashyosidan profil, plastmassa va MDF eshik-romlar, eshiklar uchun rezina, zinalar uchun to‘siqlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yidik va qo‘shni davlatlarga mahsulot eksportini boshladik. Germaniyaning yetakchi korxonalari bilan hamkorlikda yig‘ma darvozalar tayyorlayapmiz. 2022-yilda o‘tkazilgan ko‘rgazmada 100 milliard so‘mlik shartnoma imzolagandik. Bu yil natijani yaxshilash niyatidamiz.

Ko‘rgazmada viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi N.Ibragimov, O‘zbekiston sanoat qurilish materiallari uyushmasi boshqaruv raisi o‘rinbosari B.Ismoilov va boshqalar ishtirok etdi.

Samarqandda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ga a‘zo mamlakatlar tajribasi” mavzusida xalqaro forum o‘tkazildi.

Unda yigirmadan ortiq davlatdan qirq nafarga yaqin xorijlik mehmonlar - Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibiyati, Ayollar taraqqiyoti tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi va tuzilmalari mutasaddilari hamda Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning oila va xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat organlari rahbarlari, hukumat vakillari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Forumning ochilish marosimida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi raisi Tanzila Norboyevaning videomurojaati tinglandi.

Shuningdek, tadbirda Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibining gumanitar, madaniy va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari doktor Tarig Ali Baxit, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Zulayho Mahkamova, Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi ayollar taraqqiyoti tashkilotining birinchi ijrochi direktori Afnan al-Shuaybi, O‘zbekiston Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva so‘zga chiqib, oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning jamiyat hayoti va davlat boshqaruvida-gi ishtirokini kuchaytirish, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglikni ta‘minlash borasida Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar, xususan, O‘zbekistonda erishilayotgan natijalarga e‘tibor qaratdilar. Mazkur xalqaro forum esa Islom hamkorlik tashkiloti davlatlarining ushbu yo‘nalishdagi hamkorligini yanada kengaytirish va o‘zaro tajriba almashishiga xizmat qilishini ta’kidladi.

– Islom hamkorlik tashkiloti davlatlarida oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq

XOTIN-QIZLAR VA OILA MASALASI MUHOKAMA ETILDI



A.ISROILOV (surat).

va manfaatlarini ta‘minlash sohasidagi erishilgan yutuq va tashabbuslarni ko‘rib chiqish, bu borada o‘zaro fikr va tajriba almashish mazkur forumning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, - deydi O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva. – Bundan tashqari, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini kuchaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, gender siyosatining turli sohalari bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, xotin-qizlarning mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash, zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishdagi ishtirokini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Ochilish marosimidan so‘ng forum shu balar-ga bo‘lingan holda o‘z ishini davom ettirdi.

Bu majlislarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, gender tengligini ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy muammolarini o‘rganish va tizimli hal etish mexanizmlari, xotin-qizlarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va IT ga keng jalb etish, iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta‘minlash hamda tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, globallashtirish jarayonlarida oilaviy qadriyatlarini saqlash hamda oila institutini mustahkamlash masalalari atroflicha muhokama etildi. Tashkilotga a‘zo davlatlar vakillari, mamlakatimizdagi davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, deputatlarning ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ma‘ruzalari tinglandi.

[↓](#) **Xorijga safardan so‘ng**

XITOIYLIKLAR BILAN TIL TOPISHISH OSON KECHDI

Biz, Narpay va Paxtachi tumani hokimliklari mas‘ullari va tadbirkorlardan iborat delegatsiya o‘zaro tajriba almashish hamda hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalarni kelishib olish maqsadida Xitoyning Shandun provinsiyasida bo‘lib qaytdik.

Safarga tumanimizning 11 nafar yetakchi tadbirkori borgan bo‘lsa, ularning 8 nafari xitoylik hamkorlar bilan 9 ta loyihani amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishdi.

Jumladan, dunyodagi 500 yirik korxona bo‘yxatida turuvchi, tungi yoritkichlar, quyosh panel-lari va LED displeylar hamda reklama quurilmalari ishlab chiqaruvchi yirik kompaniya – “Tianjin Culture Media So., Ltd.” rahbari Zechun Li bilan qiymati 5 million dollarlik yangi investitsion kelishuv imzolandi. Unga ko‘ra, mazkur kompaniya tumandagi sanoat hududida tibbiy jihozlar, yengil konstruksiyali uy-joy maketlari ishlab chiqarish va o‘rnatish hamda qadoqlovchi sex faoliyatini yo‘lga qo‘yadi.

Shuningdek, LED lampalari, qishloq xo‘jaligi texnikalari, elektr skuterlar, maishiy jihozlar uchun dvigatellar ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, xitoylik tadbirkorlar kelib, bozorlarimiz va qo‘shimcha imkoniyatlarimizni o‘rgansa, boshqa loyi-

harni ham amalga oshirishimiz mumkin.

Shandun provinsiyasi vakillari bilan til topishishimiz juda oson kechdi. Sababi, avvaldan xitoylik tadbirkorlar bilan yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan edi. Shu paytga qadar 2 nafar xitoylik ishbiarmon tumanimizda ish boshlagan. Xitoyga safarimizda ular bizga hamrohlik qildi va ishbiarmon yurtdoshlari bilan bizni yaqindan tanishtirdi.

Joriy yil boshida ularning biri janob Vang Xao bilan hamkorlikda 6 million dollarlik loyihani amalga oshirishga kelishganmiz. Shu paytga qadar 2 million dollarlik investitsiya kiritilib, terak daraxtidan mebel jihozlari uchun maxsus (DSP, faner, akrel) yog‘och mahsulotlari tayyorlash ishlari boshlab yuborilgan.

Tumanimiz ishbiarmonlari yana bir xitoylik tadbirkor bilan hamkorlikda hududimizda mosh yetishtirish, shuningdek, boshqa tuman va viloyatlardan bu mahsulotni yig‘ish bilan shug‘ullanyapti. Uni qadoqlab, Xitoyga eksport qilish rejamiz bor.

Safarimiz natijasida bu tadbirkorlar ham faoliyatini ken-

gaytiradigan bo‘ldi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, xitoyliklar bilan amalga oshirilishi rejalashtirilgan 9 loyiha uchun 30 million dollar investitsiya kiritilishi kutilyapti. Tumanimiz tadbirkorlari o‘z mablag‘lari hamda bank kreditlari hisobidan jami 50 million dollarlik loyihalarni yaqin 3 yilda amalga oshirishi ko‘zda tutilyapti. Natijada dastlab 400 dan ziyod doimiy ish o‘rni yaratiladi.

Amalga oshiriladigan loyihalar nafaqat tuman, balki viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga sezilarli darajada hissa qo‘shadi.

Ma‘lumki, 2000-yillargacha Xitoy rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lmagan. Bu davlat aholisining qat‘iy tartib-iqtisodiy, ilimga bo‘lgan ijobiy yondashuvi natijasida hozirgi darajaga yetib kelgan. Biz ham nafaqat davlat idoralari vakillari, balki barcha fuqarolar birlashib, tartib va ilm bilan harakat qilsak, yaqin yillarda rivojlangan davlatlar safiga bemaol qo‘shila olamiz.

**Sherzod RAHMONOV,
Narpay tumani hokimi.**

INDALLOSINI AYTGANDA...



**Xurshid
DO'STMUHAMMAD,
jurnalist, yozuvchi:**

- Kishi yaxshi bir kasb-kor, hunar egasi bo'lishi mumkin, moddiy boyligi yetarlidir. Biroq mutolaasiz hammasi kemtik, kitob o'qib qalbini tarbiyalamasa, muhtaloligini asrab-avaylamasa, komilligiga putur yetadi.

**Xosiyat
BOBOMURODOVA,
O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi,
shoira:**

**OBUNA –
2024**

- "Zarafshon" gazetasi men uchun qadrlı. Unda bosilgan maqolalarni erinmay o'qiyman. Ochiq aytaman: lotin alifbosiga o'tgandan keyin o'qiy olmasam kerak, deb o'ylagandim. Lekin shu bahona bu alifboda ravon o'qishni o'rgandim.

**Qadrdon
gazetaga
obuna bo'ldim,
SIZNI HAM
CHORLAYMAN.**



Bosh qomus yangilandi

Nimalar oʻzgardi?

Bosh qomusimiz haqida koʻp eshitganmiz, aksariyat hollarda unda belgilangan tamoyillar-dan xabardormiz. Ammo mamlakatning Asosiy qonuni joriy yilda yangilandi, mutaxassislar-ga koʻra, uning qariyb 60 foizi oʻzgartirildi. Bu esa avval bilganlarimiz mutlaqo boshqa bir maʼno-mazmunga ega boʻlganini anglatadi.

Shu va boshqa sabablarga koʻra, uni qayta boshdan oʻrganish kerak, deb hisoblaymiz. Yashirib nima qildik, avvalgi Konstitutsiyamizning qiy-mati haminqadar edi. Unda “demokratik davlatlar eʼtirof etgan” normalar aks etgani bilan uni amalda hech qayerda koʻrmas, his qilmas edik. Yangilangan Konstitutsiya joriy yil 1-maydan kuchga kirdi va u mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega hamda toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiladi. Bu qoida fuqarolar-ning, davlat organlari, davlat va nodavlat tashkilotlarining Konstitutsiya normalaridan foydalanishi, unga muvofiq ish yuritishini koʻzda tutadi.

PROKUROR HUQUQINGIZNI CHEKLAMASIN! Maʼmuriy Javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 280-mod-dasida chegaradan oʻtish tartibini buzgan shaxslar 10 sutkagacha prokuror roziligi bilan ushlab turilishi mumkinligi belgilangan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 27-moddasi-da esa shaxs sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilangan.



Sektor mutasaddisining tajribasi jamiyatga naf keltiradi

Joriy yilning 15-18-noyabr kunlari viloyatdagi sektorlar faoliyatini yax-shilash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sektor shtabi aʼzolarining ishlash tizimini takomillashtirish, mahalla faollari bilan sektor shtabi oʻrta-sidagi hamkorlikni samarali yoʻlga qoʻyish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga bagʻishlangan oʻquv-seminarlar tashkil etildi.

Sektorlar faoliyati samaradorligini oshi-rishda ustuvor hisoblangan masalalar yuzasidan joylarda oʻtkaziladigan semi-narlarning aniq vazifalari 19-23-oktabr kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi-da tashkil etilgan oʻquv-amaliy seminar-da belgilab berilgan edi.

Kattaqoʻrgʻon shahrining birinchi sektori shtabida oʻtkazilgan tadbirida viloyatimizda-gi barcha shahar va tumanlar hokimlari, sektor kotiblariga faoliyatni sifat jihatidan yaxshilash, mavjud muammolarni bartaraf etib, aholining davlatdan roziligini taʼmin-lash, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanti-rish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida maʼlumotlar berildi. Kattaqoʻrgʻon shahar Yermachit mahallasi markazida sek-tor shtabi aʼzolari uchun yaratilgan qulay-liklar, ish sharoitlari va mahalla faollari bilan hamkorlik tizimi bilan tanishildi.

Shaharda yaqinda foydalanishga topshiril-gan Monomarkaz zamonaviy asbob-uskunalar bilan taʼminlangan. Bugun markaz tinglovchi-lariga ehtiyoj yuqori boʻlgan 30 dan ortiq kasb-hunar oʻrgatilmoqda. Maskanda Kat-taqoʻrgʻon shahridan tashqari, Ishtixon, Kat-taqoʻrgʻon, Narpay, Nurobod, Paxtachi va Qoʻshrabot tumanlari fuqarolarining kasblarga oʻqitilishi, ish bilan taʼminlanishi seminar qat-nashchilarining eʼtiborini tortdi.

Shuningdek, ishtirokchilar shaharda-gi 8-davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti, 11-ixtisoslashtirilgan umumtaʼlim maktabi, shahar poliklinikasida kuz-qish mavsumi-ga tayyorgarlik boʻyicha amalga oshirilgan ishlar, taʼlim samaradorligini oshirish, aholi salomatligini taʼminlash bilan bogʻliq amaliy ishlarga guvoh boʻldilar.

Seminar dasturiga asosan Sharof Rashi-dov nomidagi Samarqand davlat universi-tetining Kattaqoʻrgʻon filialida yangi qurib bitkazilgan zamonaviy oʻquv binosi ham koʻzdan kechirildi.

Urgut tumanida ikkinchi sektor rahbar-lari hamda kotiblari uchun tashkil qilingan seminar-da mazkur sektor aʼzolarining ma-hallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarning salomatligi bilan bogʻliq masalalarni tezkor-lik bilan hal etishi, tibbiyot muassasalarida profilaktik davolash tizimi yoʻlga qoʻyilganli-gi ijobiy tajriba sifatida oʻrganildi. Ishtirokchilar tuman ikkinchi sektori shtabi tomonidan tegishli idoralar bilan

hamkorlikda “Besh tashabbus” olimpiadasi doirasida hududdagi mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar ishtirokida koʻrgazmali tadbirlar, ishsiz fuqarolar uchun “Boʻsh ish oʻrinlari” yarmarkasini tomosha qilishdi.

Tumanning Sariqtepa mahallasi markazida sektor shtabi va mahalla masʼullari beshligi-ning hamkorligi, 48-umumiy oʻrta taʼlim mak-tabi, 35-davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti, oilaviy shifokorlik punktida kuz-qish mavsumi-ga tayyorgarlik ishlari, maktab oʻquvchilari-ning kasb-hunarga oʻqitish markazidagi tahsili jarayonlari bilan tanishtirildi.

Kattaqoʻrgʻon tumanida oʻtkazilgan seminar davomida viloyatning shahar va tumanlari ichki ishlar idoralari boshliqlari – uchinchi sektor rahbarlari va kotiblari 54-umumiy oʻrta taʼlim maktabining kuz-qish mavsumiga tayyorgarligi, oʻquvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Qoradaryo mahallasi markazining yangi binosining ochilishiga guvoh boʻlindi.

Narpay tumanida tashkil etilgan seminar-da viloyatdagi shahar va tumanlar soliqchilari jam boʻldi. Tadbir davomida sektor hududi-dagi mahallalar fuqarolari tomonidan bildi-rilayotgan murojaatlar bilan ishlash tartibi ishtirokchilarining eʼtiborini tortdi.

Ishtirokchilar shuningdek, tumanning Chaykal mahallasida yangi qurib bitkazilgan 90 oʻrinli 41-davlat maktabgacha taʼlim muassasasi faoliyati, Totkent mahallasi markazida sektor shtabi va mahalla masʼul-larining hamkorlik tizimi bilan tanishdilar.

Mutasaddilar tumanning Tepa mahallasi-dagi xitoylik investorlarning qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi, Salovat mahallasi-da olib borilayotgan bunyodkorlik va obodon-lashtirish ishlari, mazkur mahalla hududidagi “Narpay teks” ishlab chiqarish korxonasi, “NBA alyans” MChJ, “Maroqand sifat” korxo-nalari faoliyati va ushbu korxonalarda yaratil-gan ish oʻrinlari bilan tanishtirildi.

Oʻtkazilgan har bir tadbir davomida muassasalar hududiga “Yashil makon” loyi-hasi boʻyicha daraxt koʻchatlari ekildi.

Seminarlarda sektorlar rahbarlari va te-gishli mutasaddilar oʻzi uchun zarur koʻnik-malar va tajribalarni olib, kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish boʻyicha fikrlarini oʻrtoqlashdilar.

Behzod RAHMATULLAYEV, viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.

SUDLAR MISOL BOʻLADI

Prezidentning qayd qilingan farmonida “yangi tahrirda-gi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida toʻgʻridan-toʻgʻri hamda soʻzsiz qoʻllanilishi lozim.

Umuman, qonunchilik Konstitutsiyaga moslashtirilmaydi, degani muammo boʻlmasligi shart. Nega?

SUDLAR MISOL BOʻLADI

Prezidentning qayd qilingan farmonida “yangi tahrirda-gi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida toʻgʻridan-toʻgʻri va soʻzsiz qoʻllaniladi”, deb belgilangan.

Shu asosda joriy yil 23-iyun kuni Oliy sud Plenumining “Odil sudlovni amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasi

Konstitutsiyamiz qabul qilingan kun oldidan

Konstitutsiyasi normalarini toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllashning ayrim masalalari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi.

Sudlar koʻrib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarni tar-tibga soluvchi qonun va boshqa normativ hujjatning maz-munini baholashi hamda zarur hollarda Konstitutsiya norma-larini toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normativ huquqiy asos sifatida qoʻllashi lozimligi yuzasidan muhim tushuntirishlar berildi.

Sud hujjatlarida huquqiy asos sifatida birinchi navbatda Konstitutsiyaning tegishli normalariga va undan keyin yuridik kuchiga qarab, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosla-nish zarurligi nazarda tutildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalariga zid ekanligi aniqlansa, faqatgina Konstitutsiya normalariga asoslanish lozimligi qayd etildi.

Demak, boʻlarkan. Albatta, hali qonun hujjatlarimizda yangilangan Konstitutsiyaga moslashtirilmagan normalar topiladi. Bu esa siz bizning faolligimiz bilan hal boʻladigan muammo.

TOʻXTAB QOLMAYMIZ!

Jamiyat hayotida eski Konstitutsiyaning oʻrni deyarli se-zilmaganining asosiy sabablaridan biri avvalo, davlat insti-tutlari uni jiddiy qabul qilmaganligida. Oqibatda Bosh qomus deb ogʻizda gapirardig-u, amalda asosiy qonun ekanligini deyarli unutib koʻygan edik.

Yangi Konstitutsiyaning 20-moddasida “inson bilan davlat organlarining oʻzaro munosabatlari yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi” degan norma belgilangan. Hech boʻlmaganda, shu moddani chuqurroq va batafsil oʻrganib olishimiz shart.

Y.MARQAYEV.

"SENIOR"

Yevropa va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi

Samarqand shahrida “ACIR Southern Europe” alyansi tashabbusi bilan Janubiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari kompaniyalari oʻrta-sida oʻzaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish maqsadida “Senior” shaharsoz-lik-meʼmorchilik loyihasi ishlab chiqilgan.

Shu yilning 23-yanvarida “ACIR South-ern Europe” alyansi va viloyat hokimligi oʻrtasida oʻzaro hamkorlik bitimi imzo-langan edi. Shu asosda bugungi kunda Janubiy Yevropaning Barselona, Valensi-ya, Madrid, Florensiya, Milan shaharlari bilan hamkorlikda 6 ta yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

“Senior” muallifi Eduard Gulyanning taʼkidlashicha, loyihani amalga oshirish jarayonida shaharda hayot sifatini yax-shilash, oʻziga xos mahalliy madaniyatning muhim elementlarini saqlab qolish borasi-dagi takliflar hisobga olinadi. Shu bilan birga, har qanday modernizatsiya ilgʻor Yevropa tajribasi va tegishli moliyalashti-rish texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Joriy yilning 6-iyul va 19-sentabrda boʻlib oʻtgan qoʻshma yigʻilishlarda viloyat hokimi oʻrinbosarlari, Ispaniya Qirolligining Oʻzbekistondagi va Oʻzbekiston Respub-



likasining Ispaniyadagi vakillari, qurilish boʻyicha mutaxassislar ishtirok etgan edi. Tez orada kompaniya mutaxassislari bilan navbatdagi yigʻilishni oʻtkazish re-jalashtirilgan. Bunda loyihaning umumiy rejasini aniqlashtirilib, uning moliyaviy tomonlari kelishib olinadi. Loyihani amalga oshirishda Yevropa davlatlari-da qoʻllaniladigan obodonlashtirish texnologiyalarining Samarqand shahri atrof-muhitiga mos kelishi, aholi salo-matligiga ziyon yetkazmasligiga katta ahamiyat beriladi.

Dilmurod TOʻXTAYEV.

Dorivor choy ishlab chiqariladi

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida respublika-miz sanoati uchun yangi mahsulot – “Artishok bargi choyi” ishlab chiqarilishi yoʻlga qoʻyilmoqda. Bu haqda Oʻzbekiston Respublika-si Sogʻliqni saqlash vazirligining 2023-yil 23-oktabrdagi xulosasida keltirilgan. Institutda olib borilayotgan keng koʻlamli ilmiy tadqiqot ishlarning navbatdagi yutuqlari sirasiga kiruvchi ushbu dorivor choy mahsuloti ovqat hazm qilish, qon aylanish tizimlari, jigar, buyrak, oʻt pufagi faoliyatini yaxshilash hamda tanadagi ortiqcha yogʻlarni yoʻqo-tishda taʼsiyati etiladi.

Xorijda artishokni qimmatbaho dorivor oʻsimlik sifatida yaxshi bilishadi. Institutimiz olimlari tomonidan 2021-yildan bosh-lab ushbu oʻsimlik-ni Samarqand va Buxoro viloyatlari-ning qishloq xoʻjaligi-da foydalanilmaydigan qurgʻoqchil va shoʻrlan-gan yerlarida ekish, biomassasini ye-tishtirish hamda xomashyosini tayyorlash ustida ilmiy taqiqot ishlari olib borildi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, ye-tishtirilgan artishok xomashyosi tarkibida inson organizmi uchun foydali biologik faol moddalar yetarli miqdorda mavjud. Bu oʻsimlik xomashyosidan dorivor choy mahsulotini tayyorlash va qadoqlash



jarayonlari institut laboratoriyalari-da amalga oshirildi. 2021-yilda artishok ye-tishtirish, xomashyosini olish va undan choy tayyorlash jarayon-lari uchun dastlab “Fitochoy – super power” mavzusida startap loyihasi qoʻlga kiritildi. Loyiha asosida fan-ishlab chiqarish integratsiyasi vujudga kelishi natijasida endilikda bu oʻsimlikdan sanoat usulida mahsulot ishlab chiqa-rish hamda aholini ekologik toza, sifatli, organik mahsulot bilan taʼminlash imkoni-yati yaratildi.

Yigitali TOSHPOLATOV, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti dotsenti.



«OʻZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASIDA

Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqa-rishi uchun mu-nosib sharoitlarni yaratish maqsa-dida:

- 1000 nafar tarbi-yachi va oʻqituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va staji-rovkaga yuborish;

- maktabgacha taʼlim tashkilotlari va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog xodimlarining oʻrtacha ish haqini 2 barobar oshirish;

- 500 ming nafar maktabgacha taʼlim tashkilotlari va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish;

- ehtiyoj yuqori boʻlgan yoʻnalishlar va olis hududlardagi abi-turiyentlar uchun peda-gogik taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha kadrlarni toʻliq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish;

- nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari sonini 1000 taga yetka-zish;

- kelgusi besh yil-da nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari faoliyatini yoʻlga qoʻyish uchun 1 trillion soʻm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish;

- 2024-yildan bosh-lab har yili davlat-xusu-siy sheriklik asosida ka-mida 100 tadan umumiy oʻrta taʼlim muassasalari qurilishi boʻyicha shart-nomalar tuzish;

- nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilot-larida tahsil olayotgan oʻquvchilar ulushini 3 barobarga oshirish;

- davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institut-laridan jalb qilinadigan mablagʻlar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari tarmogʻini kengayti-rish loyihalarini amalga oshirish;

- 700 ta professional taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;

- 14 ta hududiy professional tayyorgar-lik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega boʻlgan peda-gog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish;

- oʻrta boʻgʻin muta-xassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logisti-ka yoʻnalishlarida 100 foizga yetkazish belgi-langan.



"Ibtido" namoyishi

Samarqand shahridagi "Chorsu" san'at galereyasida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, taniqli rassom Ahmad Umarovning "Ibtido" deb nomlangan tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi ochildi.

- Ushbu ko'rgazmada ijodkorning tarixiy, manzara, portret va tematik mavzulardagi ishlari namoyish etilyapti, - deydi Samarqand badiiy ijodkorlar uyushmasi rahbari Nuriddin Kalonov. - A.Umarovning tarixiy mavzulardagi

asarlari uning tariximiz bilimdoni ekanidan darak beradi. Shu sababdan rassomning asarlari nafaqat mamlakatimizda, balki Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi bir qancha mamlakatlarda shaxsiy kolleksiyalarda saqlanyapti.

Ko'rgazmadan rassomning "Imom Buxoriyning Xartang qishlog'iga kelishi", "Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir Sherdor madrasasi qurilishida" kabi turli janrdagi 50 dan ortiq san'at asarlari o'rin olgan.

S.MARDIYEV.



Samarqandlik sportchilar Osiyo chempionatida to'rtta medalni qo'lga kiritdi

Toshkentda o'smirlar va yoshlar o'rtasida dzyudo bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. 15 mamlakat sportchilari ishtirok etgan musobaqalarda O'zbekiston terma jamoasi birinchi o'rinni egalladi.

Musobaqa natijasiga ko'ra, terma jamoamiz yoshlar toifasidagi bellashuvlarda 7 ta oltin, 3 ta kumush, 6 ta bronza, o'smirlar toifasidagi bahslarda 7 ta oltin, 5 tadan kumush va bronza medallarni qo'lga kiritdi.

Mazkur musobaqalarda samarqandlik sportchilar bittadan oltin va kumush, 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi.

O'smirlar o'rtasida oltin medal +90 kilogramm vazn toifasida Elnur Xolmo'minovga, kumush medal -73 kilogramm vaznda Azamat Abloqulovga nasib etdi.

Yoshlar o'rtasida bronza medalga 90 kilogramm vaznda Alisher Samanov, 63 kilogramm vaznda Sarvinoz Husanova ega chiqdi.

↓ Mutaxassis maslahati

Botulizm:

xavfli mavsumiy kasallik

Aholi o'rtasida botulizm bilan xastalanish asosan noyabr oyidan boshlab, may oyigacha, ya'ni uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilish davrida qayd etiladi. Ko'p yillik kuzatishlar bu kasallikka asosan uy sharoitida tayyorlangan marinadlangan bodring, pomidor, patission, qalampir, qo'ziqorin, karam konservalari, baqlajon iknasi va dudlangan baliq mahsulotlarini iste'mol qilish sabab bo'layotganligini ko'rsatmoqda.

Botulizm tayoqchasi spora (qobiq) hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgani sababli tashqi muhit ta'sirlariga juda chidamli. Qaynatganda ham o'lmaydi, 120 daraja haroratda 30 daqiqada, sporasi 20 foizli zararsizlantiruvchi formalin ta'sirida 24 soatda jonsizlanishi mumkin. Bu mikroba toksini me'da va ichak shirasi ta'sirida o'z kuchini yo'qotmaydi, qonga so'rilib, inson organizmini zaharlaydi. Bakteriyasi tashqi muhitda quruq sharoitda, tuproqda uzoq yillar saqlanadi.

Botulizm holsizlanish, bosh og'rig'i, og'iz qurishi bilan boshlanadi. Ba'zida ko'ngil aynishi, qayt qilish, bosh aylanishi va 1-2 marotaba ichning suyuq ketishi kabi belgilar kuzatiladi. Bundan tashqari, to'sh suyagi ortida og'riq kuzatilib, tez-tez kekirish paydo bo'ladi.

Kasallikka chalinmaslik uchun xonadonlarda konservalangan mahsulotlarni tayyorlashda texnologik talablarga to'liq rioya qilish lozim.

Sherzod MURODOV, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Samarqand shahar tezkor bo'linmasi boshlig'i, kapitan.

MO'L-KO'LCHILIKDA, BOY-BADAVLAT YASHASHNI KOHLASAK...

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Xulosa qilib aytganda, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy taraqqiyotda nodir iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish evaziga jahon xo'jaligida peshqadamlilik qilayotgan, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hamda iqtisodiy qoloq mamlakatlar hisobidan behisob boyliklarni o'zlashtirayotgan G'arb davlatlarining yutuqlari ular iqtisodiy tafakkurining cheksiz imkoniyatlaridan unumli foydalanganliklari bilan belgilanadi. Demak, Yangi O'zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlaridan biriga aylantirish, iqtisodiy taraqqiyotning yuqori cho'qqilarini zabt etish, avvalambor, iqtisodiy tafakkurning hozirgi kunda mamlakatlararo cheksiz imkoniyatlaridan unumli foydalanish poygasida ustunlikka erishish bilan bog'liq. Bu esa o'zimizga, faqat o'zimizga, ongimizdagi iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni kengaytirishga, iqtisodiy tafakkurning ulkan imkoniyatlarini iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omiliga aylantira bilish, to'la safarbar qilish qobiliyatimizga bog'liq.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mamlakat tashqi aylanmasida eksport-importning yo'nalishlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini takomillashtirish borasida oqilona siyosat olib borilmoqda. Natijada eksport tarkibida xomashyo tovarlarning ulushi keskin qisqarib (masalan, paxta), import tarkibida mashina va jihozlarning ulushi keskin oshdi (masalan, mashina va jihozlar). Mamlakatning xomashyo resurslarini qayta ishlash va tayyor mahsulot sifatida chetga eksport qilish siyosati O'zbekistonga chetdan import qilinadigan zamonaviy mashina, uskuna va jihozlar ulushini keskin oshirishni taqozo etdi. Ushbu siyosat O'zbekiston milliy iqtisodiyotini yuksaltirishning birinchi bosqichida o'zining ijobiy samarasini berdi: har bir xomashyo sarflari evaziga olinadigan qo'shilgan qiymat miqdori ko'paydi. Lekin u mamlakatning makroiqtisodiy siyosati talablariga javob bermaydi.

O'zbekiston dunyoning rivojlangan G'arb davlatlari safidan o'rin olishi uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YIM hajmining o'rtaacha yillik o'sish sur'atlari ularnikidan (boshqa rivojlanayotgan davlatlarinikidan ham) sezilarli darajada yuqori bo'lmog'i shart. Aks holda, aholi hayot farovonligini tubdan oshirish, iqtisodiy taraqqiyot poygasida peshqadamlilikni qo'lga kiritish borasidagi ezgu maqsadlarimiz qog'ozda qolib ketadi.

Yangi O'zbekistonda haqiqiy iqtisodiy mo'jiza sodir bo'lishi uchun ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zamonaviy, lekin qimmatbaho mashina va jihozlarning importyoridan asta-sekin, bosqichma-bosqich ularning eksportyoriga aylanish siyosatini tutmoq lozim. Bunday yuksak marralarga erishishning asosiy sharti mamlakatda iqtisodiy ong va iqtisodiy tafakkurning dolzarb muammolarini zamon talabi darajasiga ko'tarishdan iborat.

Iqtisodiy tafakkur insonni taraqqiyotning nechog'li yuksak cho'qqilariga olib chiqishi mumkinligi xususida juda ko'p tarixiy dalillarni misol qilib keltirish mumkin.

Birinchi misol

Adam Smit, Devid Rikardo, Djon Meynard Keyns, Alfred Marshall, Yozef Shumpeter, Milton Fridman kabi mashhur iqtisodchilar, yuksak, iqtisodiy tafakkur sohiblari edilar. Afsuski, ularning iqtisodiy tafakkuri, noyob iste'dodi tufayli ixtiro etilgan iqtisodiy qonunlarning, nazariya va ilg'or g'oyalarning kishilik jamiyati taraqqiyotiga, uni boyitishga qo'shgan hissasini hisoblab chiqishning va raqamlarda ifoda etishning iloji yo'q. Masalan, kishilik jamiyati olamga mashhur buyuk iqtisodchi Keynsning dono maslahatlari va ilmiy tavsiyalariga tayangan holda, butun jahon xo'jaligini, uning tarkibidagi barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyotini larzaga keltirgan, batamom izdan chiqargan, behisob iqtisodiy yo'qotishlarga sababchi bo'lgan Buyuk depressiyaning dahshatli girdobidan tarqqiyotning ravon yo'lga olib chiqish sharafiga muayassar bo'ldi.

Mana shundan kelib chiqqan holda, bir shu misolda iqtisodiy tafakkurning iqtisodiy taraqqiyotga erishishdagi roli nechog'lik kuchli ekanligini izohlab berish mumkin. O'sha og'ir damlarda, tabiiyki, butun dunyo yetakchi iqtisodchilarning, barcha iqtisodchi olimlarning butun diqqat-e'tibori jahon xo'jaligini halokatli inqiroz azob-uqubatlaridan olib chiqishga qaratilgan edi. Lekin ularning ichidan faqat Keyns ushbu o'ta og'ir muammoning to'g'ri yechimini izlab topdi va dunyoning buyuk iqtisodchisi, deb tan olindi. Nima uchun? Chunki uning iqtisodiy tafakkuri tadqiqotda ishtirok etgan boshqa raqobatchi safdoshlarinikidan yuqori edi.

Shuning uchun ham u atigi 45 betdan iborat "Bandlik, kredit va foizning umumiy nazariyasi" (1936 yil) nomli asarida yoritgan ilmiy g'oyalari yordamida iqtisodiyot fanida butun dunyo iqtisodchilari e'tirof etgan tom ma'noda ilmiy to'ntarish yasadi.

Bir narsani aniq aytish mumkinki, Keyns va u kabi iste'dodli iqtisodchi olimlarning jahonshumul ahamiyatga ega ilg'or iqtisodiy g'oyalari, fanda chinakamiga to'ntarish yasagan ilmiy nazariyalari kishilik jamiyatiga behisob moddiy boylik keltirdi, insonning to'q-farovon hayot tomon harakatiga yo'lbo'shchilik qildi. Kishilik jamiyati iqtisodiy taraqqiyotiga ularning qo'shgan hissasini qiymat jihatidan millionlab, yuz millionlab oddiy ishlab chiqaruvchilarning bir necha yillik mashgaqqatli mehnati bilan yaratilgan moddiy boylikka qiyoslash mumkin.

Ikkinchi misol

Inson iqtisodiy tafakkurining kuch-qudratini olamga mashhur Karl Marks ta'limoti asosida ham yaqqol yoritib berish mumkin. Kommunistik jamiyat qurish nazariyasining ixtirochisi Karl Marks dunyoning buyuk iqtisodchilaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Amaliy tajriba uning nazariyasi noto'g'riligini, kommunizmga o'tish g'oyasi soxtaligini, puchligini ko'rsatdi. Bizningcha, iqtisodchining buyukligi uning butun umri davomida III tomondan iborat "Kapital" nomli asar yozib, kommunizmga o'tish to'g'risida yangi ta'limot yaratganligida emas, balki ilmiylikdan yiroq bo'lgan ana shu soxta nazariyaga millionlab, yuz millionlab kishilarni ishon-tira olganligida. Uning soxta, sxolastik g'oyalarga ishongan avom xalq qo'lga qurol olib, revolyutsion to'ntarishlarda faol ishtirok etdi, juda ko'p kishilar jang maydonlarida hat-to jonini ham qurbon qildi. Natijada sayyoramizda 15 ta respublikadan tarkib topgan SSSR davlati, 14 ta mustaqil davlatni qamrab olgan sotsialistik lager vujudga keldi. Marks ta'limotiga, uning sxolastik g'oyalarning hayotiyilgiga qat'iy ishongan, ularni haqqoniy deb qabul qilgan dohiylar, davlat arboblari, olimlar, iqtisodchilar, keng xalq ommasi ancha tarixiy davr davomida ushbu g'oyaning amaliyotga tadbiq etishga, ro'yobga chiqarishga ham urinib ko'rdilar. Lekin kishilik jamiyatiga juda qimmatga tushgan Marks ta'limoti amaliy tajribada o'zining ilmiyligini, haqiqiy ekanligini isbotlab berolmadi. Behuda eksperimentlardan so'ng Marks ta'limoti batamom inqirozga uchradi, kishilik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha oltin qoidalarga qat'iy rioya qiladigan tizim - zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tutdi.

Har qanday sog'lom fikrlaydigan kishida butun dunyoni suvsiz tebratgan, juda ko'p kishilar qat'iy ishongan kommunistik jamiyat qurish g'oyasining inqirozga uchrashining sababi nimada, degan savolning tug'ilishi tabiiy? Oddiygina qilib tushuntirib berishga urinib ko'rmoqchimiz.

Marksning iqtisodiy ta'limoti avval boshdan tabiat qonunlarini yetarli darajada e'tiborga olmagan holda, aniqrog'i, uning ob'ektiv qonunlarini inkor etish asosida yaratilgan edi. Ma'lumki, tabiat insonni, qolgan barcha tirik mavjudotlar singari, muayyan hayotiy ehtiyojlar va ushbu ehtiyojlarni qondirish imkonini beruvchi iste'mol qilish qobiliyati bilan qurollantirdi. Demak, inson, o'z tabiatiga ko'ra, birinchi navbatda, iste'molchidir. Tabiatun u iste'mol qilib yashashga, o'zining hayotiy ehtiyojlarni qondirishga, ya'ni tabiatning ob'ektiv qonunlariga itoat qilishga, majbur. Ayniqsa, insonning fiziologik ehtiyojlarni qondirish xususida gap ketganda, ushbu haqiqat inkor qilib bo'lmaydigan aksiomaga aylanadi. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan tan olingan, 5 qismdan tarkib topgan, Maslou ehromining asosida insonning birinchi darajali ehtiyoji sifatida aynan fiziologik ehtiyojlar o'rin olganligi ham bejiz emas. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, inson oziq-ovqat mahsulotlari iste'molisiz 40 kungacha, suv iste'molisiz 10 kungacha jon saqlashi mumkin ekan. Demak, har qanday kuch, jamiyat qonuni, nazariya, iqtisodiy ta'limot yoki boshqa vositalar insonni iste'mol qilish tashvishlari va azob-uqubatlardan qutqarib olishga yoki mahrum qilishga ojizlik qiladi.

M.MUHAMMEDOV, M.PARDAYEV, iqtisod fanlari doktorlari, SamSI professorlari.

(Davomi kelgusi sonlarda).

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Shog'dor FARMONOV

Beshafqat o'lim dong-dor paxtakor, mohir qishloq xo'jaligi xodimi Shog'dor Farmonovni dunyodan olib ketdi.

Sh.Farmonov 1940-yilda Payariq tumanining "Cho'rosh" xo'jaligida dunyoga keldi. O'rta maktabni tugatgan Sh.Farmonov o'sha yillardagi yetakchi soha - paxtachilikda o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatning tiklanishiga o'z hissasini qo'shish maqsadida Samarqand qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirdi. 1959-yil institutda agronom mutaxassisligi bo'yicha o'qish jarayonining o'zida "Cho'rosh" xo'jaligiga mexanik vazifasiga qabul qilindi. Keyinchalik 1981-yilgacha tumandagi 143-qurilish korxonasida bosh mexanik, 1991-yilgacha "Sohibkor" xo'jaligida bosh agronom bo'lib ishladi.

Mustaqillik yillarida ham Sh.Farmonov o'z qobiliyati va iste'dodini xalq xo'jaligi ishlari-ga safarbar etdi. 1997-yilgacha Shreder nomidagi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida xo'jalik rahbari, 2000-yilgacha Payariq tumani "Cho'rosh" jamoa xo'jaligi raisi, xo'jalik tugatilgach, "Muhammadi", "Ko'kdala" mahalla fuqarolar yig'inlari raisi vazifalarida mehnat qildi.

U qaysi vazifada ishlamasin, o'z kuchi, bilimi bilan xalq e'tiborini qozonishga, davlatga va odamlarga foydasi tegadigan ezgu ishlarni bajarishga intildi. Hatto pensiyaga chiqqandan keyin ham uyda o'tirmadi, mahalla faoli sifatida mustaqilligimizning qadriga yetib yashash, yurtga halol va sodiq xizmat qilish borasida yoshlarga pand-nasihatlar berdi.



Sh.Farmonov besh qiz, olti o'g'ilning mehribon otasi, o'nlab nabira va chevaralarining suyuqli bobosi edi.

O'zining ezgu amallari, qishloq xo'jaligi sohasidagi ibratli tashabbuslari bilan el orasida obro' topgan Shog'dor Farmonovning xotirasi farzandlari, yaqinlari, hamkasblari va shogirdlari qalbida yashaydi.

"NURONII" JAMG'ARMASI PAYARIQ TUMANI BO'LIMI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Abbosova Muxabatga (2012-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Gulyamov Odilga (2022-yil 16-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi. Mo'ljal: "Baxt uyi".

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Jdankina Mariya Timofeyevnaga (2019-yil

22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Ibragimova Difluzha Anorboyevnaga (2023-yil 16-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Kadirov Madjidga (2016-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi "CROCUS FLAVOURS INGREDIENTS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305487885) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

O'zbekiston Bilyard sporti federatsiyasi Samarqand viloyati hududiy bo'limining (STIR: 207336948) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Nurobod tumanidagi "O'YINQARAQ BOLALIK" nodavlat ta'lim muassasasining (STIR: 306179967) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Shartnoma asosida harbiy xizmatchi Yusufxo'jaev Ilxomjon Yunusxoja o'g'lining (Pasport AS 1662651) xizmat guvohnomasi Samarqand shahri hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz. **Telefon: +99897-595-99-94.**



ALI QUSHCHIⁿⁱ QANCHALIK BILAMIZ?

Yoxud ta'lim muassasalarida uning merosi nega o'rgatilmaydi?

Bundan besh yil burun kimyo bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Aziz Sanjar Samarqand davlat universiteti olimlari, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvda jahonning nufuzli ilmiy dargohlarida faoliyat yuritayotgan nufuzli olimlar xulosasiga ko'ra, insoniyat tamadduni, dunyo ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan yetti al-loma safida Ali Qushchining ham borligini e'tirof etgandi.

Asli Turkiyada tug'ilib voyaga yetgan bo'lsa-da, 50 yildan oshiq vaqt Amerikada yashab, bugun Shi-moliy Karolina universiteti professori sifatida jahonning manaman degan ilmiy mutaxassislari bilan hamkorlik qilib kelayotgan olimning bu gapi uchrashuvda o'tirgan ko'pchilik kabi meni ham ajablantirgandi.

Chunki "Mirzo Ulug'bekning shogirdi bo'lgani, us-tozidan meros qolgan ayrim asarlarni saqlab qolgani" bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni hisobga olmaganda, Ali Qushchi haqida deyarli hech narsa bilmasdim. Biz maktabda yoki oliy o'quv yurtida o'qigan davrlar dars-liklarga bu olim haqida tarjimai holidan boshqa narsa kiritilmagan edi-da.

Afsuski, bugun ham yosh avlod "O'z davrining Batli-musi" (Ptolomey – qadimgi yunon munajjimi) deb tanil-gan Ali Qushchi haqidagi muhim ma'lumotlar – uning matematika, astronomiya, geografiya, falsafa, huquq, ilohiyot va tibbiyot bilimdoni ekanligidan bexabar katta bo'lishmoqda.

Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining ta'kidlashi-cha, Ali Qushchining hayoti, faoliyati, qoldirgan ilmiy merosi maktab darsliklariga alohida mavzu sifatida kiritilmagan va tabiiyki, o'quv rejada ham yo'q. Faqatgina Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani mavzusi qahramonlari doirasida Ali Qushchi sodiq shogirdi sifati-da qisman eslab o'tilgan, xolos.

Hatto oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlari-da ham Ali Qushchi tilga olinmaydi hisob. Atigi tarix yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga temuriylar davri mavzusi doirasida Ulug'bek rahnamoligida kamol top-gan astronom ekanligi qisqacha bayon etilgan.

Ali Qushchi merosi ancha yillardan buyon dunyo-ning ko'plab mamlakatlarida, ayniqsa, Turkiya, Yevropa davlatlari, AQSHning nufuzli oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida o'qitilayotgan bir paytda bizda uning asarlarini, ilmiy izlanishlarini ommalashtirish, bu merosdan aholi-mizni ko'proq xabardor qilishga ahamiyat berilmayot-gani ajablanarli emasmi?

To'g'ri, ilmiy konferensiyalar, xalqaro anjumanlar-da olimlar tomonidan Ali Qushchining Mirzo Ulug'bek ilmiy maktabining buyuk vakili sifatida ustozlari merosini saqlash, uni avlodlarga yetkazish borasidagi xizmatlari onda-sunda o'rganiilyapti, muhokama qilinyapti. Ammo bu dunyo olimlari tarafidan top olingan alomata yurt-doshimizning adabiy, ilmiy merosidan xalqimiz xabardor ekanligini anglatmaydi-da.

Ali Qushchining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasining dunyoviy ahamiyatini his qilishingiz uchun internet sahifalaridan olingan quyidagi ma'lumotlarni keltirish joiz:

Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi Samarqand shahrida tug'ilib o'sgan va XV asrda ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan matematik va astronom sifatida nom qozongan. U Ulug'bek saroyidagi Muhammad ismli ovchi - qushlarga qarovchi kishining o'g'li bo'lib, shu sababli unga Qushchi laqabi berilgan. Otasidan yetim qolganidan so'ng uni Ulug'bek o'z tarbiyasiga oladi va "Zij"ning so'zboshisida "farzandi arjumand", deydi.

Boshlang'ich bilimlarni Samarqand olimlaridan olgan Ali Qushchi keyinchalik matematika va astronomi-ya fanlari haqidagi bilimlarni Qozizoda Rumiy hamda Ulug'bekdan o'rganadi.

Ulug'bek 1424-yilda o'zining mashhur rasadxonasi-ga asos solgach, ish boshlangan dastlabki yilda Jam-shid Koshiy, bir necha yildan so'ng Qozizoda Rumiy vafot etadi. Shunda Ulug'bek rasadxonadagi qurilish ishlariga va astronomik kuzatishlarga yosh olim Ali Qushchini mutasaddi qiladi.

1449-yilda Ulug'bek o'dirilgach, mirzolar o'rtasida ro'y bergan nizodan afsuslangan Ali Qushchi bu yerda-gi ilmiy ishlarni to'xtatishga majbur bo'ladi va Haj safa-riga o'tlanadi. Ozarbayjonga yetib borib, biror muddat Tabrizda yashaydi.

Tabrizda uni mahalliy hokim Uzun Hasan o'z saroyi-ga taklif qilib, unga katta hurmat va ehtirom ko'rsatadi (Ali Qushchining Haj amallarini bajargan yoki bajarma-gani haqida ma'lumot mavjud emas).

Safari davomida Ali Qushchi usmonli sulton Abul Votih Sulton Muhammad II ning saroyiga boradi. Sulton uni juda ilqiy qabul qilib, o'ziga yaqin tutadi, doimiy ya-shash uchun Istanbulda qolishni taklif etadi. Ali Qushchi bu taklifni qabul qiladi va sultonning ruxsati bilan yana Tabrizga qaytib borib, u yerda turgan ikki yuzga yaqin qarindosh-urug'lari va yaqinlarini Istanbulga olib keladi. Sulton uning qarindoshlarini ham izzat-ikrom bilan kutib oladi.

Ali Qushchi 1472-yilda kundalik 200 aqcha moya-na bilan Aya Sofiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi.

Ali Qushchining tug'ilgan yili noma'lum bo'lsa-da, vafot etgan sanasi aniq. Bu sana uning qizi tarafidan nabirasi Miram Chalabiyning quyidagi misralarida kelti-rilgan: "Ilm-fan rahnamosi mavlona Ali Qushchi Jannat gulzori sari yuzlangan vaqt hijratdin sakkiz yuz yetmish to'qqizinchi yil, shanba, sha'bonning yettinchisi kuni". Hijriy 878-sana, melodiy 1474-yil 17-dekabrga to'g'ri keladi. U Istanbuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan.

Ali Qushchining ilmiy asarlari Ulug'bek "Zij"idek shuhrat qozonmagan bo'lsa ham, uning ijodi fan tarixida muhim o'rin tutadi. U o'rta asrlardagi Mo-varounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so'nggi namoyandasi, usmonli turklar-dagi birinchi eng yirik va ko'zga ko'ringan olim bo'lgan. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof etishicha, Ali Qushchi kelguniga qadar Istanbulda "ilmi hay'atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo'lmagan edi".

Chunki Ali Qushchining Istanbulga kelishi bilan bu mamlakatda astronomiya fani sohasidagi ishlar yo'lg'a qo'yildi, Miram Chalabi kabi boshqa atqoli olimlar voyaga yetdi. Shuningdek, uning Istanbulga kelishi Nafaqat usmonli turk fani tarixida, balki dunyo fanida muhim bir voqea bo'ldi. Sababi usmonli turklar 1453-yil Istanbulni fath etganidan so'ng biroq o'tmash, bu shajar Sharq va G'arb madaniyatlarining uchrashuv joyiga aylangandi.

O'sha davrda Yevropada Sharq fani va madaniyatiga qiziqish katta bo'lib, yevropaliklar Sharq xalqlarining ilmiy yutuqlarini chanqoqlik bilan o'ziga singdirayotgan edi. Istanbulda Italiya, Germaniya, Avstriya va Gollandi-yadan rassomlar, muhandislar, harbiy mutaxassislardan tashqari, astronomiya va matematika mutaxassislari ham to'plangan.

Xususan, birinchi bo'lib Samarqand olimlarining yutuqlaridan Germaniyadan kelgan hisobdon "kossist-lar" bahramand bo'lishdi. Shu tariqa Ulug'bek va uning "Zij"i haqidagi xabarlar melodiy XV asr oxiridayoq Yevropaga tarqaldi. Bunda Ali Qushchining xizmati beqiyos. Bugun Ali Qushchi asarlarining asl nusxalari – qo'l-

Tarjimon milliy qadriyatlarimizni yaxshi bilishi kerak

Xorijdan kelayotgan sayyohlarni mu-nosib kutib olish, ularga buyuk tarixi-miz, qadim an'analarimiz haqida aniq va to'liq ma'lumot berishda gid-tarji-monlarning mahorati muhim ahami-yatga ega. Afsuski, bugungi kunda tarjimonlik faoliyati bilan shug'ul-lanadiganlarning ayrimlari ba'zida bir-biridan qiziqarli urf-odatlar-i-miz, ularning paydo bo'lishi haqi-da sayyohlarga ma'lumot berish-da qiyinalib qolishadi.

- Yosh tarjimonlarimiz ana shunday noqulay vaziyatga tushib qolishining oldini olish maqsadida soha uchun mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanadigan Samarqand davlat chet tillar institutida ochiq darslar tashkil etil-yapti, - deydi institutning yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Sherzod Suyu-nov. – Ing-liz tili-I fakulte-ti

yozmaları, sharhlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutidan tashqari, Turkiya, Eron, Ros-siya, Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Hindiston, Tojikiston, Tataristonning milliy, yirik ilmiy dargohlari kutubxonalarida, nufuzli muzeylarida saqlanmoqda.

Ali Qushchi qalamiga mansub asarlar ro'yxati: - "Risola fi-l-hisob" ("Hisob haqida risola"). Asar fors tilida 1425-yili Samarqandda yozilgan. U uch qism-dan iborat: o'nlik hisoblash tizimi, oltmishlik hisoblash tizimi va handasa.

Bu risola O'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lib, nafaqat Movarounnahr olimlarining, balki butun Yaqin va O'rta Sharq olimlarining diqqatini o'ziga jalb etgan. 150 yil o'tgach, mazkur risoladan Bahouddin Omuliy (1547-1621) o'zining "Xulosat ul-hisob" nomli asarida foydalangan.

- "Risolai qusur" ("Kasrlar risolasi"). Bu asar ham Samarqandda fors tilida 1426-yilda yozilgan. Risola-ning qimmatli shundaki, unda Ali Qushchi o'nlik kasrlar tushunchasini va o'nlik kasrlar yordamida irratsional kvadrat ildiz chiqarish usulini bayon etadi.

- "Risola at-fathiya" ("G'alaba risolasi"). Asar turk sultoni Muhammad II ning Iroq sultoni Azim ustidan g'alaba (fath) qilgani munosabati bilan 1473-yil Istan-bulda yozilgan va astronomiyaga bag'ishlangan.

- "Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob" ("Hisob haqida"). Asar arabiy imloda yozilgan hisobga doir eng nodir asarlardan biri bo'lib, turk sultoni Muhammad II ga bag'ishlangan. Unda o'nlik va oltmishlik hisoblash tizimlaridan arifmetika, algebra, geometriya va trigo-nometriya masalalari yoritilgan. Asarni muallifning o'zi 1472-yili forsiyga o'g'irgan. Asarda birinchi marta "musbat" va "manfiy" iboralar hozir biz qo'llayotgan ma'noda ishlatiladi.

- "Risola fi halla ash-shakl al-hilol" ("Hilolsimon shakllarni o'Ichash haqida risola"). Arab tilida yozilgan risola bo'lib, qo'lyozmasi saqlanmagan.

- "Sharhi Miftohal-ulumi Taftazoniy" ("Taftazoniy-ning "Miftoh al-ulum"ining sharhi"). Fors tilida yozilgan risola. Unga Qozizoda Rumiy sharh yozgan.

- "Risola dar ilmi hay'at" ("Astronomiya ilmi haqida risola"). Asar "Risola dar falakiyot", "Riso-layi forsiya dar hay'at" va "Hay'ati forsiy" nomlari bilan ham ma'lum bo'lib, fors tilida bitilgan. Risolada Samarqand maktabi olimlarining astronomiya so-hasida erishgan yutuqlaridan guvohlik beruvchi qator ma'lumotlar mavjud. Ali Qushchining shogirdlaridan biri Abulqodir ibn Hasan Ro'yoni (vafoti 1520-yil) risola haqida bunday deydi: "Men astronomiyaga doir ko'p asarlarni o'rgandim, Shamsiddin al-Koshiy, Husaynshoh Samoni, Nosiri Sheroziy va Alishoh Xorazmiylarning "Zij"larini sinchiklab mutolaa qildim. Lekin Ali Qushchining risolasini o'qiganimdan so'ng astronomiya sohasidagi barcha anglamagan narsala-rim menga ayon bo'ldi".

- "Sharhi "Ziji Ulug'bek" ("Ulug'bek "Zij"iga sharh"). Sharh ham "Zij"ning o'zi kabi fors tilida yozilgan. Uni avval Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiyilar boshlagan edi. So'ng sharhni Ali Qushchi Istanbulda yakunladi.

- "Sharhi risolai "Tuhfat shohiya" ("Shohiy tuhfa" risolasining sharhi"). Mashhur matematik va astronom Qutbiddin Sheroziyning (vafoti 1311-yil) risolasiga sharh.

- "Sharhi risolai "Sullam as-samo" ("Sullam as-sa-mo" risolasiga sharh)". Bunda Ali Qushchi o'zining Samarqanddagi ustozlaridan biri Jamshid Koshiyning "Sullam as-samo" nomli astronomik risolasiga sharh bergan.

- "Xitoyнома". Bu risolani Ali Qushchi 1438-yil Ulug'bek tomonidan Xitoyga elchilikka yuborilganida



tomonidan o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbir ham aynan shu maqsadga qaratilgan. Albatta, yoshlar-imiz chet tilida ravon so'zlasha olgani bilan tarixi-miz va milliy qadriyatlarimiz haqida chuqur bilimga ega bo'lmas ekan, xorijliklarga tarjimonlik xizmatini ko'rsatish, ularning e'tiborini tortish qiyin. Shuning uchun ham bugungi kunda talabalarimizga profes-sor-o'qituvchilarimiz tomonidan ochiq darslarda qadi-miy an'analarimiz, milliy taomlar va hunarmandchilik mahsulotlari, ularning tayyorlanish jarayonlari amaliy mashg'ulotlar tarzida ko'rsatib berilyapti.

Institutda o'tkazilgan "Milliy qadriyatlar – jamiyat ko'zgusi" mavzusidagi tadbirda talabalar tomonidan tayyorlangan taomlar va qo'l mehnati mahsulotlari ko'rgazmasi, milliy qadriyatlarni aks ettirgan turli til-lardagi sahna ko'rinishlari yoshlar uchun amali-yot darsi bo'ldi.

Nasiba SIDDIQOVA, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

qayt-ganidan so'ng fors tilida yozgan. U o'zining shaxsiy kuzatishlariga ko'ra, Xitoyning iqlimi, tabiati, xi-toylilarning urf-odatlarini bayon etgan. Undan tashqari, bu asarda matematika, geografiya bilan birga olam xaritasi ham keltirilgan.

- "Risolai mantiq". 1430-yil Samarqandda, fors tilida yozilgan risola.

- "Sharhi tajvidi Xoja" ("Xoja "Tajvidi"ning sharhi"). Asar mashhur astronom, matematik va faylasuf Xoja Nasiriddin Tusiyning (1201-1274) falsafasiga doir "Taj-vid" nomli asariga sharhdan iborat. Uni bo'lajak olim 1417-yili Kermondaqligida yozgan bo'lib, uning qalamiga mansub ilk asar edi.

- "Risola al-Mufradiya". Arab tilidagi risola, man-tiqqa bag'ishlangan.

- "Mahbub ul-hamoyil fi kashfil masoyil" ("Masa-lalarni hal qilishning mahbub bo'lganlari haqida"). Risola arab tilida yozilgan bo'lib, 20 bobdan iborat. Har bir bob alohida fanga bag'ishlangan.

- "Risola muta'olliqa bi kalimat at-tavhid" ("Tavhid kalimasiga aloqador risola"). Arab tilida yozilgan ilohi-yotga doir risola.

- "Risola tata'llaq bi kuyia" ("Umumiyatga aloqador risola") arab tilida yozilgan falsafiy asar.

- "Risola al-istorot". Arab tilida yozilgan mantiqqa doir risola.

- "Sharh ar-risola al-Azudiya" ("Al-Azudiya" riso-lasiga sharh"). "Al-Azudiya" risolasi aslida Izziddin ibn Abdurahim ibn Ahmad Ijy (vafoti 1335-yil) tomonidan arab tilida yozilgan bo'lib, uni Ali Qushchi sharhlagan. Risola tilshunoslikka mansub.

- "Al-unut va zavarhir fi nazmil javohir". Arab tilida yozilgan mantiqiy risola.

- "Risola al-mujas fit-tibb" ("Tibbiyotga mansub mo'jaz risola"). Arab tilida yozilgan.

- "Sharh risola al-fiqh" ("Fiqh haqidagi risolaning sharhi"). Bu asar islomdagi to'rt mazhabdan biri bo'lmish Imomi A'zam mazhabiga asos solgan mashhur imom Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit tomonidan yozilgan "Al-fiqh" risolasiga sharhdir. Asar arab tilida yozilgan va islom huquqshunosligiga taalluqli.

- "Risola fi hall al-misol al-handasa" ("Geometri-yaga doir bir masalaning yechilishi haqida risola"). Arab tilida yozilgan bu asarda muallif aylanaga o'tka-zilgan urinma hosil qilgan burchak haqida bir teore-mani isbotlaydi.

Bulardan ko'rinadiki, Ali Qushchi butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan. Ali Qushchining ulug' xizmati shundaki, u Mirzo Ulug'bekning "Ziji Jadidi Ko'ragoniy"-sini taxt uchun bo'lgan taloto'plardan omon asrab, Turkiyaga olib borishga, undan Yevropa, qolaversa, jahon xalqlari bahramand bo'lishiga zamin hozirlagan. Samarqand ilmiy-adabiy muhitining qudrati va salohi-yatini dunyoga yoygan. O'z navbatida, o'nlab noyob asarlar yozib, nomini tarix sahifalariga kiritishga muvaf-faq bo'lgan.

Shunday ekan, bu alloma yurtdoshimizning hayoti va ijodi, ilmiy merosi ta'lim muassasalarida tahsil olayot-gan o'quvchi-talabalarga keng miqyosda o'rgatilishi foydadan xoli bo'lmasa kerak.

Abdug'ofur SHERXOLOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 340 nusxada chop etildi. Buyurtma 635. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda